



“TBC Bank” ATBning “TBC Stars” sodiqlik dasturining QOIDALARI VA SHARTLARI

1. Atamalar va ularning ta’riflari

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o’rinlarda - Bank).
Boshqaruv Kengashi	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki boshqaruvi
TBC Stars	“TBC UZ” ilovasidagi sodiqlik dasturining (geymifikatsiya – amaliy vazifalarni bajarishda o’yin ko’rinishidagi yondashuv va b.) tijoriy nomi (keyingi o’rinlarda " Dastur ").
Bank mijozi	Bank xizmatlaridan foydalanayotgan jismoniy shaxs.
Yetakchilar ro’yxati	Haftaning eng faol Bank Mijozlari aks ettiriladigan bo’lim.
Topshiriqlar	Yulduzlarni qo’lga kiritish uchun Bank Mijozlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.
Yulduzlar	Bank Mijozlarining Yetakchilar ro’yxatidagi muayyan qatorida joylashuvini belgilovchi ballar.
Saralash davri	7 kalendar kuniga teng davr bo’lib, har birida pullik mukofotlarning taqsimlanishi nazarda tutilgan.
Hafta	Jumadan jumaga qadar bo’lgan davr. Bunda Bank Mijozlari muayyan chora-tadbir/harakatlarni amalga oshirib, Yulduzlarni qo’lga kiritishadi va Yetakchilar ro’yxatidan joy olishadi.
Sovrin jamg’armasi	Yetakchilar orasida taqsimlanadigan byudjet
Dastur ishtirokchisi	Bank mijozi, “TBC Stars” Dasturining a’zosi.
Yulduzlarning bekor qilinishi	Yangi Saralash davri boshlanishidan oldin oldingi Saralash davridagi Yulduzlar bekor qilinadi.

2. Umumiy qoidalar

- 2.1. Bankning “TBC Stars” sodiqlik dasturining ushbu qoida va shartlari (keyinchalik - "Qoidalar") Bank Mijozlarining “TBC Stars” Dasturida ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.
- 2.2. Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq **ommaviy oferta** bo'lib hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida - www.tbcbank.uz joylashtirilgan.
- 2.3. “TBC Stars”da har haftalik Saralash davri uchun pullik mukofotlar nazarda tutilgan, ular Bankning eng faol Mijozlari o'rtasida taqsimlanadi.
- 2.4. **Dasturning o'tkazilish joyi:** O'zbekiston Respublikasi hududi.
- 2.5. **Dastur amal qilish muddati:** Dasturning amal qilish muddati: Dastur 2020 yil 1 dekabrda 2021 yil 31 yanvargacha (31 yanvar kuni yakunigacha) o'tkaziladi. Agar Boshqaruv Kengashi tomonidan dasturni qonunda belgilangan tartibda to'xtatish va/yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilinmasa, dastur avtomatik ravishda keyingi 2 oyga uzaytiriladi. Dasturni to'xtatib turish va/yoki bekor qilish hollarida mijozlar bu haqda www.tbcbank.uz sayti orqali, ilova interfeysida, axborot xabarlarida chop etish yo'li bilan yoki sms-xabarnomalar orqali oldindan xabardor qilinishadi.
- 2.6. Dastur haftalik Saralash davrlaridan iborat bo'lib, ularning har birida pul mukofotlari taqsimlanadi. Saralash davrlari soni faqat 2.5-bandda ko'rsatilgan Dastur amal qilish muddati bilan chegaralanadi.
- 2.7. Ushbu Dastur lotereya yoki tavakkalchilik kabilarga asoslangan o'yin emas. Bunda Dastur ishtirokchilari Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq mulkiy tavakkalchiliklarni o'z zimmalariga olishmaydi. Dasturni o'tkazish jarayoni ishtirokchilar tomonidan qandaydir to'lovlar kiritilishi bilan bog'liq emas.
- 2.8. Bank Mijozlari ushbu Qoidalarni qabul qilish orqali Dastur qoida va shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

3. Dastur ishtirokchilari va ishtirok etish shartlari

- 3.1. “TBC UZ” mobil ilovasini o'rnatgan va ishlatayotgan, identifikatsiyadan o'tgan Bankning har qanday Mijozlari Dastur ishtirokchisiga aylanishi mumkin.
- 3.2. Ushbu Dasturda ishtirok etish uchun maxsus ariza talab qilinmaydi. Mazkur Qoidalar “TBC UZ” mobil ilovasida ro'yxatdan o'tish jarayonida identifikatsiyadan o'tgan Bank Mijozlari tomonidan qabul qilinib bo'lib, u avtomatik ravishda Dastur ishtirokchisiga aylanadi.
- 3.3. Ushbu Qoidalar kuchga kirgunigacha avvaldan ro'yxatdan o'tib bo'lgan, identifikatsiyadan o'tgan Bank Mijozlari SMS va/yoki dasturdagi Push bildirishnomasi orqali mazkur Dastur ishtirokchilariga aylanishadi.



3.4. Bir Saralash davri g'oliblari keyingi barcha Saralash davrlarida ishtirok etishlari mumkin.

4. Sovrin jamg'armasi

4.1. Sovrin jamg'armasi pul mukofotidan iborat. Har bir Saralash davri uchun sovrinlar soni va ularga tegishli pul mukofotlari "TBC UZ" mobil ilovasining "TBC Stars" bo'limida ko'rsatilgan bo'ladi.

5. Dasturni o'tkazish va sovrinlarni taqsimlash tartibi

- 5.1. "TBC Stars" har hafta o'tkaziladi. Har 7 kalendar kunda, bir vaqtning o'zida Dasturning avvalgi Saralash davri yakunlanib, uning yangi Saralash davri boshlanadi. Saralash davrining boshlanish va yakunlanishining aniq vaqti va kuni "TBC UZ" ilovasining "TBC Stars" bo'limida ko'rsatilgan.
- 5.2. Dastur ishtirokchilari Yulduzlarni turli xil topshiriqlarni bajarish orqali yig'ib boradilar. Topshiriqlar va Yetakchilar ro'yxatlari "TBC UZ" mobil ilovasida "TBC Stars" bo'limida keltirilgan.
- 5.3. Yetakchilar ro'yxatiga kirgan Ishtirokchilar, ya'ni Saralash davri yakunlanguniga qadar eng ko'p Yulduzlarni to'plaganlar - Saralash davri g'oliblari deb topiladi. Har bir Saralash davri uchun Yetakchilar ro'yxati va tegishli sovrinlar "TBC UZ" mobil ilovasining "TBC Stars" bo'limida ko'rsatiladi.
- 5.4. Ishtirokchi tomonidan joriy Saralash davrida qo'lga kiritilgan Yulduzlarining joriy soni "TBC UZ" ilovasining bosh sahifasi(ekran)da hamda "TBC UZ" ilovasining "TBC Stars" bo'limida ko'rilishi mumkin.
- 5.5. Agar Saralash davri yakuniga qadar ikkita Ishtirokchi bir xil miqdordagi Yulduzlarga ega bo'lsa, u holda ushbu Yulduzlarni mazkur davrda boshqa Ishtirokchilarga nisbatan hammadan avval to'plagan biri g'olib deb topiladi. Yetakchilar ro'yxatidagi g'olibning aniq o'rnini "TBC UZ" ilovasining "TBC Stars" bo'limida ko'rish mumkin.
- 5.6. Oldingi Saralash davridagi Yulduzlar yangi Saralash davri boshlanishidan oldin bekor qilinadi. Yangi Saralash davrining aniq boshlanish sanasi "TBC UZ" mobil ilovasida "TBC Stars" bo'limida ko'rsatiladi.

6. Sovrinlarni olish tartibi va muddati

- 6.1. G'olib joriy Saralash davri yakunlanganidan keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda "TBC UZ" mobil ilovasida xabarnoma orqali e'lon qilinadi.
- 6.2. Mukofot pullari Bank Mijozining joriy yoki karta hisobvarag'iga joriy Saralash davri yakunlanganidan keyingi ish kunidan kechiktirmay o'tkaziladi.
- 6.3. Bank Mijozining mukofot pullarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan har qanday maqsadlar uchun sarflashi mumkin.
- 6.4. Olingan mukofot pullari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasi, 2-qismning 14-bandiga muvofiq soliqqa tortilmaydi.

7. Boshqa shartlar

- 7.1. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida - www.tbcbank.uz joylashtirilgan
- 7.2. Dastur Ishtirokchilari yuqoridagi veb-saytda (yuqoridagi havoladan foydalangan holda) tegishli o'zgarishlarni tekshirib, Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilib borishlari shart.
- 7.3. Bank mijozining ushbu dasturda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega. Buni TBC UZ mobil ilovasida, TBC Stars bo'limida, «Qoidalar» sahifada «Dasturni tark etish» tugmasini bosish orqali amalga oshirish mumkin.
- 7.4. Bank missiya bajarish mobaynida mijoz tomonidan shubhali tranzaksiya/harakat amalga oshirilganini aniqlagan holatda, bank ushbu shubhali tranzaksiya/harakatlar sababli missiya davomida qo'lga kiritilgan yulduzlarni olib qo'yish huquqiga ega